

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 4031 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 731 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,1 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 674 tasi (16,7 %) kiyim ishlab chiqarishga, 604 mingtasi (15,0 %) Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 410 tasi (10,2 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-aprel holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7 418,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,2 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	7418,5	109,2
Namangan shahar	1958,2	106,3
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	322,4	106,2
Kosonsoy tumani	466,6	116,8
Namangan tumani	341,1	110,9
Norin tumani	95,3	107,1
Pop tumani	168,6	108,2
To'raqo'rg'on tumani	1382,8	98,9
Uychi tumani	484,7	110,6
Uchqo'rg'on tumani	282,5	101,5
Chortoq tumani	245,1	123,6
Chust tumani	729,8	114,1
Yangiqo'rg'on tumani	105,3	109,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025- yil yanvar-mart oylari da 2363,9 ming so'm (2024- yil yanvar-mart oylarida 1699,8 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 6 125,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,6 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 20,2 mlrd so'm (0,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 190,2 mlrd so'm (16,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 82,1 mlrd so'm (1,1 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-mart oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 7303,2 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 58,3 % ga kamaygan), 328,7 tonna paxta tiviti(lint) (52,1 % ga kamaygan), 11 122,0 litr Ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (1,1 % ga ko'paygan), 173,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (51,0 % ga kamaygan) hamda 2859,1 tonna tozalanmagan paxta yog'i (66,1% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Paxta chigiti, tonna	16294,8	17522,2	7303,2
Paxta tiviti (lint), tonna	678,6	686,4	328,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	-	10997,0	11122,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	18176,5	10206,1	5003,5
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	1048	8433,2	2859,1
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	1675	4411,0	1731,7
Paxtadan yigirilgan tikuv iplari, tonna	-	-	1703,6
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	229,2	884,9	1792,9

**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi - 48,8%(2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,1 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 %)ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi esa – 4,2 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,3 % (6,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 13,8 % (14,3 %), quyi texnologiyali 76,8 % (77,9 %)ni tashkil etgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 103,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 73,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
---------------------	-----------------------	-----------------------	----------------------

Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 726,3	1506,9	1281,5
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	22,7	47,2	20,9
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	13 516,6	13 492,7	11 152,9
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)	58,5	1 066,4	2 909,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6 065,3	5 948,1	5 645,8
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, mln kub. m	23,1	26,9	15,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 4,6 % ga ko'payish, oqava suvlarning shلامي 24,7 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlarida 24,8 % ga kamayganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar- mart*	2025-yil yanvar- mart
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari-ming so'm	22,3	32,5	32,5
Oqava suvlarning shلامي - ming.so'm	2,2	2,3	2,9
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari-ming so'm	4,7	14,2	12,2

*2023-2024-yillarning yanvar-martoylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 305,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 46,4 % ni tashkil etgan.



V. Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish surʼatlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 89 ta loyiha boʻyicha 527,7 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 16,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Loyihalar soni, birlikda	99	163	107	119	89
Korxonalar soni, birlikda	57	77	82	91	63
Ishlab chiqarish hajmi	101,0	209,6	313,8	441,1	527,7
Yaratilgan yangi ish oʻrni	159	676	364	504	279

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida 2025-yilning yanvar-mart oylarida 279 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 55.4 % ga kamayganligi kuzatildi.

VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

N. Abduraxmonova
69 227-84-80 (5010)

Manzil:

160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
